

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI PEDAGOGLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLANTIRISH MUAMMOLARI

O'rinova Feruza O'ljayevna

*Farg'ona davlat universiteti, maktabgacha ta'lim kafedrası v.b., professori
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

*To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna, magistrant
furinova3@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning ahamiyati va asosiy omillari tahlil qilingan. Shuningdek, pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish uchun zarur bo'lgan metodik yondoshuvlar, amaliyotlar va ta'lim jarayonini takomillashtirish usullarini ko'rsatib berishdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotining samarali ishlashi, tarbiyachilarning kasbiy malakasi va kompetentligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Maqolada pedagoglarning kompetentligini shakllantirishda o'quv dasturlari, malaka oshirish, amaliyot va tajriba almashish, pedagogik nazorat va psixologik qo'llab-quvvatlash kabi omillar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, kompetensiya, kasbiy kompetensiya, kasbiy malaka, kommunikativ kompetensiya, shaxsiy kompetensiya, kreativ kompetensiya, maxsus kompetensiya.

ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧИТЕЛЕЙ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

Аннотация: В данной статье анализируются значение и основные факторы формирования профессиональной компетентности педагогов в дошкольных образовательных организациях. Также представлены методические подходы, практики и методы совершенствования образовательного процесса, необходимые для повышения уровня профессиональной компетентности педагогов. Эффективное функционирование дошкольного образовательного учреждения напрямую связано с профессиональной квалификацией и компетентностью педагогов. В статье рассматриваются такие факторы, как учебные программы, повышение квалификации, обмен практикой и опытом, педагогический контроль и психологическая поддержка в формировании компетентности педагогов.

Ключевые слова: дошкольное образование, компетентность, профессиональная компетентность, профессиональная квалификация, коммуникативная компетентность, личностная компетентность, творческая компетентность, специальная компетентность.

PROBLEMS OF FORMING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Abstract: *This article analyzes the importance and main factors of the formation of professional competence of teachers in preschool educational organizations. It also shows the methodological approaches, practices and methods of improving the educational process necessary to increase the level of professional competence of teachers. The effective functioning of a preschool educational organization is directly related to the professional qualifications and competence of educators. The article studies such factors as curricula, advanced training, practice and experience exchange, pedagogical control and psychological support in the formation of the competence of teachers.*

Keywords: *preschool education, competence, professional competence, professional qualification, communicative competence, personal competence, creative competence, special competence.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan yangilanishlar, o'zgarishlar va innovatsion tashabbuslar pedagoglarning malakasini oshirishni talab etadi. Maktabgacha ta'lim tizimining islohoti pedagoglarning o'ziga xos kasbiy va shaxsiy kompetentliklarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Xususan, pedagogik innovatsiyalar, yangi o'quv dasturlari va metodikalar ta'lim jarayoniga joriy etilishi bilan birga, pedagoglarning amaliyotga tayyorligini va ta'lim sifatini oshirishni talab etadi.

Bundan tashqari, global miqyosda ta'lim tizimidagi o'zgarishlar va xalqaro standartlarga moslashuv zarurati pedagoglarni doimiy ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini yangilab borishga undaydi. Pedagoglarning kasbiy kompetentligi, zamonaviy pedagogik usullarni amaliyotda qo'llay olish qobiliyati nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, balki tarbiyalanuvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlash uchun ham muhimdir.

Maktabgacha ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi, xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribasidan milliy hususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish, davlat standartining ta'lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga mosligi davlat standartining asosiy printsiplari bo'lib hisoblanadi. Bugungi kunda har tomonlama rivojlangan yetuk, barkamol insonni tarbiyalashning maqsad va vazifalari ma'naviy boylik, axloqiy poklik, jismoniy

mukammallikni o'zida mujassamlashtirgan ijtimoiy faollikni tarbiyalashni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik faqatgina an'anaviy metodik bilimlar emas, balki muammoni hal qilish, bolalar bilan samarali muloqot o'rnatish, shuningdek, doimiy o'zini rivojlantirishga tayyorlikni o'z ichiga oladi. Shu sababli, ushbu Bitiruv ishida maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarining kasbiy kompetentligini aniqlash, mavjud muammolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratildi.

Maktabgacha ta'limning rivojlanishi va sifatli ta'lim berish pedagoglarning kasbiy kompetentligiga bevosita bog'liqdir. Ushbu ta'lim turi bolalarning hayotdagi ilk qadamlarini tashlashi va ularning dunyoqarashini, axloqiy qadriyatlarini, ijodiy va aqliy rivojlanishini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirish masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Ko'plab pedagog olimlar o'zlarining tadqiqot ishlarida kompetentlikni pedagogik nuqtai nazardan yanada kengroq sinchiklab o'rganish imkonini beradigan turli jihatlarini, tarkibiy qismlarini ajratib olganlar va o'rganib chiqqanlar.

V.V.Bashevning fikricha, kompetentliklar–insonning individual qobiliyati bo'lib, ular shart-sharoitlar o'zgargan paytda ushbu qobiliyatning boshqa shart-sharoitlarga ko'cha olishida namoyon bo'ladi. N.G.Vigotkovskiyning fikriga ko'ra, kompetentlik – qo'yilgan muammolarni hal etishga qaratilgan insonning ichki (bilim, ko'nikma va malakalari, ma'naviy sifatlari, psixologik xususiyatlari) va tashqi (moddiytexnik, ijtimoiy) imkoniyatlarini safarbar qila olishga qodirligidir.

V.Andreyevning ta'kidlashicha, kompetensiya - bu ma'lum o'quv, kasbiy va boshqa kompleks masalalarni yechishda namoyon bo'luvchi, rivojlanib boruvchi integral ko'rsatkich bo'lib, shaxsning (ijobiy motivatsiya, ilim, mahorat, iqtidor va ijodiy faoliyat tajribasini o'z ichiga oluvchi) tayyorgarlik darajasidir.

Shu o'rnida "kasbiy kompetentlik" tushunchasiga Gaynazarova Gulbahor Abdullayevnaning mualliflik ta'rifini keltiramiz: kasbiy kompetentlik pedagogik vaziyatlarda o'z bilim, ko'nikma va malakalarini oqilona qo'llash, pedagogik

muammolarni hal etishda tarbiyalanuvchilarga ta'sir ko'rsatish usul va uslublari hamda vositalaridan mohirona foydalana olish imkoniyatini beruvchi kasbiy fazilatlar majmuidir.

M.N. Xushnazarovanning fikricha tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi - bu o'zining kasbiy mahoratini rivojlantirishga intiladigan, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida o'quv-tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil etadigan va davlat dasturi asosida o'zining variativ dasturlarini yarata oladigan, tarbiyalanuvchilarni maktabga sifatli tayyorlaydigan, ta'lim tizimidagi islohotlarga mas'uliyat bilan yondashib o'rganadigan va uni amaliyotda qo'llay oladigan, mustaqil fikrini bayon eta oladigan shaxs.

M.Umaraliyevaning fikricha, kompetensiya - bu o'zining kasbiy mahoratini mukammal rivojlantirgan, dars jarayonini nafaqat loyihalashtiradigan, balki uni boshqara oladigan, ta'lim islohotlarini, zamon talablarini, innovatsiyalarni tez ilg'ab, uni dars jarayonida samarali qo'llay olishdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog-tarbiyachilarining kompetentligini rivojlantirish uchun uzluksiz malaka oshirish tizimini yo'lga qo'yish, metodik va pedagogik kengashlarda ma'ruzalar bilan faol ishtirok etishlarini nazorat qilish, zamonaviy ta'lim texnologiyalarni bilish va ulardan foydalanishlariga erishish, tarbiyachilarning o'z ustida ishlashlarini tashkil etish, axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalana olish ko'nikmasini oshirish, pedagogik texnologiya vositalari va ularni muntazam takomillashtirish, turli tadbir, tanlov va loyihalarda ishtirok etishlarini ta'minlash, shaxsiy pedagogik tajribasini umumlashtirish uchun keng targ'ibot ishlarini tashkil etishlari lozim. Tarbiyachida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda o'z-o'zini rivojlantirishi va o'z ustida ishlashi juda muhimdir. Tarbiyachi muntazam takomillashgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini amaliyotga joriy etishdagi muammo va yechimlarga qaratilgan o'quv seminari, master-klass, konferensiyalarda ishtirok etishi tajribali tarbiyachilarni ochiq mashg'ulotlarini kuzatishi, kasbiy malakalarini yuqori cho'qqilariga chiqishlariga, tarbiyachilarning o'zlarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishlariga imkon beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, yuqorida

keltirilgan zamonaviy ta'lim texnologiyalari orqali faoliyatlarni tashkil etish yosh bolalarda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish va ularni ilmiy-texnik ijodga jalb qilish uchun ta'lim vazifalarini amalga oshirishga kompleks yondashuvni ta'minlaydi. Tarbiyachi innovatsion faoliyatini tizimli tashkil etishi uchun yangilik yaratishi, yangilikni o'z faoliyatida qo'llashdan cho'chimasligi, yangi bilimlarni o'zlashtirishi darkor. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachining innovatorligini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish lozim. Qachonki qulay sharoitda tarbiyachida yangi g'oyalar, tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar, odatiy bo'lmagan tashabbuslar, noan'anaviy yondashuvlar, ilg'or ish uslublari namoyon bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda tarbiyachilar uchun metodik tavsiyalar, interfaol ta'lim usullari, zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, bolalar o'yini, o'yinchoqlar, ertaklar, she'rlar, maqollar, ajdodlarimiz ma'naviy meroslaridan na'munalar tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Birinchi galda tarbiyachilarni turli xil metodlar vositasida faoliyatda va faoliyatdan tashqari vaqtlarda, ta'lim berish hamda bola yoshiga mos bo'lgan o'yinlardan foydalanish, ajdodlarimiz o'gitlaridan foydalanish, she'rlarni yod oldirishi, ertaklar, maqollardan faoliyatlari davomida o'z o'rnida foydlana olishi orqali kasbiy kompetentligi shakllanadi.

NATIJALAR

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishdan ko'zlangan maqsad: maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog-tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish va tavsiya etilgan pedagogik shart-sharoitlardan samarali foydalanish darajasini aniqlashdan iborat etib belgilandi. Tajriba-sinov ishlariga jami 18 nafar pedagog-tarbiyachilar jalb etildi. Tadqiqot jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish darajasi va unga ta'sir qiluvchi omillar o'rganildi. Tadqiqot jarayonida tashkilotning pedagogik jamoalari bilan suhbatlar olib borildi va anketa so'rovnomalarini o'tkazdik.

MUHOKAMA

O'tkazilgan tadqiqotlar va tajriba-sinov ishlari asosida maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda qo'llanilgan

metodlarning amaliy samarasini chuqur tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Pedagogik faoliyatning samaradorligi bevosita o'qituvchining kasbiy bilim va ko'nikmalariga, o'z ustida ishlash salohiyatiga, shuningdek, ta'lim jarayoniga yangicha, innovatsion yondasha olish qobiliyatiga bog'liq.

Tajribadan avvalgi holatni o'rganish maqsadida 18 nafar pedagog bilan suhbatlar, testlar va kuzatuvlar o'tkazildi. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, metodik bilimlar, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, AKT vositalaridan foydalanish, psixologik muloqotda faollik va o'z-o'zini tahlil qilish ko'nikmalarida past ko'rsatkichlar qayd etilgan. Metodologik bosqichda belgilangan interaktiv mashg'ulotlar, seminar-treninglar, kuzatuv va refleksiya, metodik tavsiyalar asosida olib borilgan faoliyat natijasida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Har bir metod bo'yicha pedagoglar bilan amaliy mashg'ulotlar tashkil qilindi. Shuningdek, o'z-o'zini baholash va test natijalari o'rtasida mavjud tafovutlar tahlil qilinib, bu o'qituvchilarning real kompetentligini aniqlashda faqat subyektiv yondashuv emas, balki obyektiv mezonlar asosida baholash zarurligini ko'rsatdi. Rivojlanishga ochiqlik, kommunikativ kompetentlik kabi jihatlarda ham sezilarli o'sish qayd etildi. Muhokama davomida aniqlanishicha, kasbiy kompetentligini rivojlantirishda tizimlilik, metodik yondashuv va uzluksiz amaliyot muhim omillar bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, pedagoglarga individual yondashuv, o'z faoliyatini tahlil qilish va doimiy refleksiya yuritish ularning kasbiy o'sishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarining kasbiy kompetentligini shakillantirishda quyidagilarga ahamiyat berish zarur:

1. Tarbiyachilarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini va xatti-harakatlarini tarbiyalash.
2. Tarbiyachilarning kasbiy mahoratlarini innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida faoliyatlarni tashkil etish, xulq madaniyati va shaxslararo ijobiy munosabatlarni tarbiyalash.
3. Tarbiyachiga jamoada o'zaro hamkorlikda faoliyatlarini olib borishlari, "Ustoz-shogird" tizimi ijobiy natijalarga olib kelishini metodlar vositasida ularning ongiga singdirish.
4. Xulqdagi salbiy sifatlarni barham toptirish.

Pedagoglarning kasbiy mahorati, yangiliklarga intiluvchanligi va o'z navbatida ijodkorligi ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishi, xorij tajribalaridan ham andoza olgan holda ulardan unumli foydalanishi va faoliyatlar jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tadbqiq etishi yaxshi samara beradi hamda ajdodlarimiz merosiga murojaat qilish orqali esa tarbiyalanuvchilarda axloq-odob meyorlarini rivojlantirish, Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatni, o'zaro do'stlik tuyg'ularini yanada mustahkamlash, sadoqatni shakllantirish kabi sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Kuzatishlar natijasi shuni ko'rsatadiki maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bugungi kungacha Davlat talablari va takomillashgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida faoliyatlarni tashkil etishda kamchiliklar mavjud hamda bu jarayon tizimli tarzda tashkil etilishida oqsashlar bor.

DMTTlarda ta'lim mazmunini tashkil etishda tarbiyachilarning kreativligini, innovatsion faoliyatini tizimli tashkil etish bo'yicha ilmiy, amaliy asoslar aniq belgilab olinmaganligi, maqsadli ishlar amalga oshirilmaganligi sababli faoliyatlarni samaradorligi past bo'lib qolayotganligi kuzatildi. Tarbiyachining nazariy va amaliy bilimlarini oshirmay turib, undan ta'lim berishda yaxshi natijalar kutib bo'lmaydi, yoki aksincha tarbiyachiga qanday va qanaqa usulda bolalarga ta'lim-tarbiya berishni mukammal o'rgatmay turib undan samarali natija kutish mumkin emas.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarining kasbiy kompetentligini shakllantirish – bu uzluksiz va tizimli jarayon bo'lib, u metodik tayyorgarlik, innovatsion texnologiyalarni qo'llash, shaxsiy va kasbiy rivojlanishga yo'naltirilgan yondashuvni talab etadi.

2. Innovatsion metodlarni o'zlashtirish orqali pedagoglar faoliyat jarayonini tashkil etishda ijodkorlik, mustaqil qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish, bolalar bilan psixologik muloqotni to'g'ri yo'lga qo'yish kabi kompetensiyalarni o'zlashtirdi.

4. Pedagoglar orasida o'z-o'zini tahlil qilish va refleksiya madaniyatining shakllanishi kasbiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu orqali ular o'z faoliyatini tanqidiy ko'z bilan baholab, zaif jihatlarini mustahkamlashga intildi.

5. Tajriba davomida o'qituvchilarning o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlari va tashqi baholash natijalari o'rtasidagi farq aniqlanib, obyektiv baholash mezonlarining joriy etilishi lozimligi anglandi.

6. Pedagogik jamoada professional hamkorlik, metodik tajriba almashinuvi, kasbiy muloqot madaniyati kuchaytirildi. Bu holat nafaqat individual, balki jamoaviy kompetentlik rivojiga ham xizmat qildi.

Umuman olganda, maktabgacha ta'lim tizimida kasbiy kompetentligini shakllantirish bo'yicha amalga oshirilgan tajriba va tahlillar bu borada kompleks yondashuvning muhimligini, metodik qo'llab-quvvatlash esa asosiy omillardan biri ekanligini tasdiqladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun uzluksiz malaka oshirish tizimini yo'lga qo'yish, tarbiyachilarning o'z ustida ishlashlarini tashkil etish hamda metodik va pedagogik kengashlarda ma'ruzalar bilan faol ishtirok etishlarini nazorat qilish, zamonaviy ta'lim texnologiyalarni bilish va foydalanish, pedagogik vositalari va ularni muntazam takomillashtirish darkor. Bundan tashqari axborot kommunikatsion texnologilalaridan foydalana olish ko'nikmasini oshirish, turli tadbir, tanlov va loyihalarda ishtirok etishlarini ta'minlash, shuningdek, shaxsiy pedagogik tajribasini umumlashtirish va keng targ'ib qilish darkor. Bo'lajak tarbiyachida kasbiy kompetentliginirivojlantirishda o'z ustida ishlashi va o'z-o'zini rivojlantirishi muhim hisoblanadi. Jumladan bo'lajak tarbiyachi muntazam Davlat talablari va takomillashgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini amaliyotga joriy etishdagi muammo va yechimlarga qaratilgan o'quv seminari, master-klass, konferensiyalarda ishtirok etishi tajribali tarbiyachilarni ochiq mashg'ulotlarini kuzatishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, tajriba-sinov ishida maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayoni o'rganildi va uning samarali tashkil etilishi uchun zarur bo'lgan asosiy omillar aniqlandi. Kasbiy kompetentlik pedagoglarning bilim, ko'nikma va shaxsiy xususiyatlaridan iborat

bo'lib, bu ularning pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatli bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot jarayonida pedagoglarning kasbiy malakalarini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash va doimiy ta'limning ahamiyati ta'kidlandi. Tadqiqotda qo'llanilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlar, jumladan, tahliliy metod, so'rovnoma va suhbat metodi, tajriba-metodik yondashuv pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishdagi mavjud holatni va unga ta'sir qiluvchi omillarni aniq tushunishga yordam berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi takomillashtirilgan ikkinchi nashr Toshkent-2022
2. N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov. "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari". Toshkent -2015. 6-7 b
3. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya.– T.:OPI, 2003.
4. Dilrabo Elmuratova, Nodira Misirova Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. O'quv qo'llanma.Guliston, 2021, 161 b
5. O'ljayevna O. F., Mirzaqulova O. Zamonaviy tarbiyachining pedagogik mahoratini oshirish yo'llari //Global Science Review. – 2025. – T. 2. – №. 3. – C. 244-248.
6. O'ljayevna O. F. Erta bolalik ta'limida steam yondashuvining afzalliklari //International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices. – 2025. – C. 129-136.
7. Oljayevna O. F. Tarbiyachi pedagoglarda ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish //Samarali ta'lim va barqaror innovatsiyalar jurnali. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 410-415.
8. O'ljayevna O. F. Bolalarda ijtimoiy-emotsional intellektni rivojlantirishda tarbiyachining fasilitatsion yondashuvi //Fergana methodical school. – 2025. – №. 2. – C. 89-97.